



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

### **VAKOLATLI IQTISODIY OPERATOR TIZIMI ASOSIDA GLOBAL TA'MINOT ZANJIRINI BOSHQARISH VA SAVDO XAVFSIZLIGIDA BOJXONA ORGANLARINING ROLINI TADQIQ ETISH MASALALARI**

Kilichov Nazar Bafoyevich

Bojxona instituti mustaqil tadqiqodchisi

#### **Annotatsiya**

Vakolatli iqtisodiy operator (VIO) tizimining asosiy maqsadi xalqaro miqyosda tan olingan korporativ identifikatsiya tizimini yaratish hamda tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) ishtirokchilarini global ta'minot zanjirida yuqori darajadagi xavfsizlik va ishonchlilikni ta'minlashga rag'batlantirishdan iborat. Ushbu maqolada VIO tizimi kontekstida bojxona ma'murchiligining zamonaviy konsepsiyalari chuqur tahlil qilinadi hamda mazkur tizimni O'zbekiston Respublikasi bojxona xizmati amaliyotiga xalqaro standartlar va majburiyatlar asosida integratsiya qilish masalalari tadqiq etiladi. Davlat bojxona organlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida VIO sertifikatini joriy etish, tizimli muammolarni bartaraf etish hamda qonuniy va barqaror savdo yo'laklari uchun bojxona rasmiylashtiruvini soddalashtirish bo'yicha strategik hamkorlik mexanizmlari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** savdoni soddalashtirish, savdo xavfsizligi, Vakolatli iqtisodiy operator, bojxona-biznes hamkorligi, bojxona auditi, xavflarni boshqarish.

#### **Kirish**

Iqtisodiyot tarixchilarining ta'kidlashicha, global iqtisodiy o'sishning eng salmoqli yutuqlari iqtisodiy liberallashtirish natijasida aloqa va transport



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

xarajatlarning qisqarishi bilan bog'liqdir. Transport va logistika xarajatlarning kamayishi xalqaro iqtisodiy integratsiyani yanada jadallashtirmoqda. Bugungi kunda xalqaro logistika sanoati milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirish va mamlakatning global raqobatbardoshligini oshirishda strategik ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi mamlakat chegaralarida nazorat va xizmat ko'rsatish funksiyalarini bajaruvchi organ sifatida zamonaviy ta'minot zanjirining ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. So'nggi yillarda Jahon bojxona tashkiloti (JBT) va global savdo hamjamiyati e'tibori bojxona va biznes o'rtasidagi munosabatlarga qaratilmoqda. Bunda bojxona organlarining roli faqatgina fiskal majburiyatlarni undirish va ma'muriy nazoratdan, butun ta'minot zanjiri bo'ylab xavfsizlikni ta'minlagan holda savdo-sotiqni soddalashtirish va biznes bilan "strategik sheriklik" o'rnatish darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston iqtisodiyotining ochiqlik darajasi oshishi, eksport-import hajmlarining keskin o'sishi sharoitida bojxona organlari oldida qat'iy nazorat va yuqori samaradorlik o'rtasidagi muvozanatni saqlash vazifasi turibdi. Cheklangan ma'muriy resurslar va inson omili yordamida nazorat sifatini oshirishning an'anaviy usullari bugungi tezkor savdo oqimlariga javob bera olmaydi. Shu sababli, O'zbekiston bojxona tizimida boshqaruv funksiyalarini optimallashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xavflarni boshqarish tamoyillariga asoslangan yangi ma'muriy falsafani shakllantirish davr talabidir.

### **VIO tizimi – Xalqaro savdoni soddalashtirish va xavfsizligining asosi**

Savdoni soddalashtirish va xavfsizlik global bojxona tizimlarining islohotlar kun tartibidagi ikki asosiy ustundir. JBT tomonidan qabul qilingan “Global savdoni xavfsizligini ta'minlash va soddalashtirish bo'yicha standartlar hadli tizimi” doirasida “Bojxona va biznes hamkorligi”ni rivojlantirish maqsadida Vakolatli iqtisodiy operator konsepsiyasi joriy etilgan. Xalqaro ta'minot zanjirida ishtirok



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

etuvchi va belgilangan xavfsizlik standartlariga to'liq javob beradigan har qanday korxonalar bo'xona organi tomonidan VIO maqomini olishi va tegishli bo'xona imtiyozlariga (yashil yo'lak, soddalashtirilgan deklaratsiyalash va h.k.) ega bo'lishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida ham raqamli monitoring tizimlari bilan to'liq qamrab olinmagan bo'xona hududlarida bo'xona qonunbuzarliklari yoki tijoriy firg'ibarlik xavfi yuqoriligicha qolmoqda. Shu sababli, raqamli ekotizimlar yordamida bo'xona tartib-taomillarini soddalashtirish va hududiy bo'xona postlari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi ishonchliligini ta'minlash dolzarbdir. Bu hamkorlik "halol korxonalar qulaylik, qonunbuzarlarga esa qat'iy jazo" tamoyili asosida ishlaydi va tadbirkorlarni tashqi savdo operatsiyalarini qonuniy standartlashtirishga undaydi.

JBT standartlariga muvofiq, VIO dasturi ta'minot zanjirining barcha ishtirokchilarini – ishlab chiqaruvchilar, importerlar, eksporterlar, brokerlar, tashuvchilar, port va logistika terminallari operatorlari hamda omborxonalarini qamrab olishi lozim. Ushbu subyektlarning yagona xalqaro reyting tizimiga integratsiyalashuvi va ularga bo'xona rasmiylashtiruvda aniq, sezilarli imtiyozlar berilishi xalqaro ta'minot zanjiri barqarorligini kafolatlaydi. 21-asrda bo'xona tarmoqlararo hamkorlik va raqamli o'zaro muvofiqlik global ta'minot zanjiri xavfsizligining eng muhim shartiga aylandi.

### **Bo'xona xavflarini boshqarish – savdo xavfsizligi va qulayligini ta'minlashning garovi**

Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, savdo xavfsizligi va qulayligiga tahdid soluvchi omillar bevosita korxonalarining ichki xavflari bilan bog'liq. Bo'xona ma'murchiligi bu xavflarni chetlab o'tishi, boshqa bo'g'inga o'tkazishi yoki risk-menejment tizimi orqali nazorat ostiga olishi mumkin. VIO tizimi nafaqat



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

import/export qilinayotgan tovarlarni, balki korxonaning ichki xavflarni boshqarish qobiliyatini, boshqaruv tuzilmasini va axborot oqimlarini ham baholaydi.

O‘zbekistonda bojxona auditi tizimini risk-menejment tamoyillari asosida yo'lga qo'yish VIO tizimini muvaffaqiyatli tatbiq etishning kalitidir. An'anaviy tekshiruv usullari yirik, raqamlashtirilgan va murakkab logistika zanjiriga ega kompaniyalarning ichki xavflarini aniqlashda samarasiz hisoblanadi. Risk-menejmentga asoslangan bojxona auditi esa diqqatni yuqori xavfli sohalarga qaratib, halol tadbirkorlarni ortiqcha tekshiruvlardan xolos qiladi.

### **Vakolatli iqtisodiy operator maqomini olish shartlari va talablari**

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 500-son qaroriga binoan **Bojxona masalalari bo'yicha operator guvohnomasi asosida reyestrda kiritish haqida ariza berilgan paytda yuridik shaxs quyidagi mezonlarga mos kelishi lozim:**

- bojxona organlariga murojaat qilingan kunga qadar o'tgan bir yil mobaynida yuridik shaxsning rahbari, bosh buxgalteri va vakolatli shaxsining, shuningdek, ushbu lavozimlarni oxirgi bir yil davomida egallagan shaxslarning bojxona organlari faoliyati bilan bog'liq ma'muriy javobgarlikka tortilganlik holatlari ikki va undan ortiq marotaba mavjud bo'lmasligi;
- bojxona organlariga murojaat qilingan kunga qadar so'nggi besh yil mobaynida yuridik shaxsning rahbari, bosh buxgalteri va vakolatli shaxsi, shuningdek, ushbu lavozimlarni oxirgi bir yil davomida egallagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 175, 182, 184, 188, 189, 209, 228 va 246-moddalarida nazarda tutilgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan holatlari mavjud bo'lmasligi;



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

- yuridik shaxsning mas'ul xodimi bojxona organlari yoki u tan olgan tashkilotlar tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun bojxona ishi bo'yicha belgilangan o'quv dasturini tugatishi;
- bojxona to'lovlari, soliqlar va yig'implarni, shu jumladan, ular bo'yicha jarima va penyalari to'lash yuzasidan bazaviy hisoblash miqdorining 50 barobaridan ortiq miqdorda qarzdorlik mavjud bo'lmashligi;
- tovarlarni deklaratsiyalash va hisobga olish bo'yicha bojxona operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan avtomatlashtirilgan tizimga ega bo'lish;
- bojxona organlarida reyestrda kiritish haqida arizani qayd etish kuniga qadar kamida 2 yil tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirgan bo'lishi, bunda:
- bojxona brokeri sifatida bojxona sohasida faoliyat yurituvchi shaxslar har yili tovarlarning faktura qiymati kamida 10 mln. AQSH dollari ekvivalentini tashkil qilgan holda, 500 tadan kam bo'lmagan import va (yoki) eksport bojxona yuk deklaratsiyalarini taqdim etishi;
- bojxona ombori egasi sifatida bojxona sohasida faoliyat yurituvchi shaxslar, bojxona organlarida murojaat qayd etilgan kunda amal qiluvchi valyuta kursi bo'yicha yillik qiymati 10 mln AQSH dollari ekvivalentini tashkil qiladigan 10 mln kg miqdordagi tovarlar saqlovini ta'minlashi;
- tashuvchi sifatida bojxona sohasida faoliyat yurituvchi shaxslar, har yili 200 tadan kam bo'lmagan import va (yoki) eksport yuklarining (partiya) xalqaro tashuvlarini amalga oshirgan bo'lishi lozim.
- tovarlar import va (yoki) eksportini amalga oshirish sohasida faoliyat yurituvchi shaxslar import va (yoki) eksport qilingan tovarlarning faktura qiymati so'nggi o'n ikki oy mobaynida kamida 1 mln AQSH dollari ekvivalentini tashkil qilishi va kamida 50 ta import va eksport bojxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtirgan bo'lishi yoki to'langan bojxona to'lovlarning summasi bazaviy hisoblash miqdorining kamida 10 000 barobarini tashkil qilishi va kamida 25 ta



## International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> June , 2026


Website: <https://econferencia.com>

import va eksport bojxona yuk deklaratsiyasi rasmiylashtiruvini amalga oshirgan bo‘lishi lozim;

- Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning boshlanish sanasi deb;
- bojxona ombori egalari uchun — bojxona ombori faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya berilgan sana;
- bojxona brokeri hamda tovarlarni import/eksport qiluvchilar uchun — bojxona organlariga erkin muomalaga chiqarish (import)/eksport bojxona rejimlariga muvofiq taqdim etilgan dastlabki bojxona yuk deklaratsiyasini bojxona rasmiylashtiruvi sanasi;
- tashuvchilar uchun — yuridik shaxs tashkil etilganligi haqida guvohnoma berilgan sana hisoblanadi.

## VIO tizimiga asoslangan xavflarni boshqarishning qo‘llanilishi

VIO tizimida bojxona auditi korxonani jazolashga emas, balki uning ichki nazorat tizimini standartlashtirishga va qonunbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Ushbu tizimli audit 4 ta bosqichda amalga oshiriladi (1-rasm):



**1-rasm. Xavflarni boshqarish tizimining tuzilmasi**



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

Agar audit jarayonida hech qanday kamchilik aniqlanmasa, korxonaning VIO maqomi tasdiqlanadi va unga yashil yo'lak kafolatlanadi. Kichik kamchiliklar aniqlangan taqdirda, bojxona organi korxonaga bartaraf etish muddatini beradi. Soliq yoki bojxona to'lovlarini qasddan yashirish, kontrabanda yoki tizimli qonunbuzarliklar aniqlangan hollarda esa korxonaga VIO reytingidan chiqariladi va unga nisbatan qat'iy ma'muriy choralar ko'riladi.

### **Xulosa**

O'zbekiston Respublikasida VIO tizimining keng joriy etilishi bojxona va biznes o'rtasida mutlaqo yangi, o'zaro ishonchga asoslangan sheriklik munosabatlarini shakllantiradi. Bojxona va tadbirkor o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi faqatgina shaffoflik va qonunga itoatkorlik tamoyili asosida hal etilishi mumkin.

VIO dasturining muvaffaqiyati nafaqat Davlat bojxona qo'mitasiga, balki soliq organlari, banklar, sertifikatlashtirish idoralari va tashqi iqtisodiy faoliyatning barcha ishtirokchilari o'rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlikka bog'liq. Istiqbolda O'zbekiston milliy VIO dasturini boshqa savdo hamkorlari bilan o'zaro tan olinishi ustida ishlashi lozim. Bu mamlakatimiz eksporterlariga xalqaro bozorlarda bojxona rasmiylashtiruvidan minimal to'siqlar bilan o'tish imkonini beradi va O'zbekistonning global logistika zanjiridagi jozibadorligini tubdan oshiradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrdagi "Bojxona ma'murchiligini takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5582-sonli farmoni.



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-apreldagi "Vakolatli iqtisodiy operatorlar tizimini joriy etish to‘g‘risida"gi 363-sonli qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi “Vakolatli iqtisodiy operatorlar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 500-son qarori
5. World Customs Organization, 2015. The framework of standards to secure and facilitate global trade.
6. World Customs Organization, 2008. Authorized economic operator guidelines.
7. World Customs Organization, 1999. International convention on the simplification and harmonization of customs procedures.
8. Chen, L. and Ma, Y., 2015. A study of the role of customs in global supply chain management and trade security based on the authorized economic operator system. *Journal of risk analysis and crisis response*, vol. 5, No. 2, pp. 87-92.
9. Fletcher, T., 2007. Authorised economic operator programs: ibm’s perspective. *World customs journal*, 1(2), pp. 61-66.
10. Grainger, A., 2012. Supply chain security: adding to a complex operational and institutional environment. *World customs journal*, 1(2), pp. 17-30.
11. Gutiérrez, X., Hints, J., Wieser, P. and Hameri, A.P., 2013. Voluntary supply chain security program impact: an empirical study with basic member companies. *World customs journal*, 1(2), pp. 31-48.
12. Haughton, M.A., 2011. Examining the business case for shipper participation in Canada-USA trade security programmes. *International journal of logistics research and applications*, 10(4), pp. 315-331.



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

- 
13. Tweddle, D., 2007. Logistics, security and compliance: The part to be played by authorized economic operators (AEOs) and data management. *World Customs Journal*, 1(2), pp. 101-105.